

2/2026,
mart-
aprel
(№ 00082)



O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI TAHLILI

Vayskulov Ramazon Alisher o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktranti

Email: romazonvays@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7925-9633

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol14_iss2/803

Annotatsiya

Maqolada jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan zamonaviy tarkibiy o‘zgarishlar va ularning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri tahlil qilingan. Unda mamlakat iqtisodiyotining tarmoq tuzilmasidagi o‘zgarishlar, xususan agrar sektordan sanoat va xizmatlar sohalariga o‘tish jarayonlari statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, iqtisodiy transformatsiyaga ta’sir etuvchi omillar, jumladan davlat islohotlari, raqamlashtirish, investitsiya muhiti va tashqi iqtisodiy aloqalar keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston iqtisodiyotida chuqur tarkibiy transformatsiya jarayonlari kechayotganini ko‘rsatadi. Maqolada iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tarkibiy o‘zgarishlar, tarkibiy transformatsiya, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o‘shish, diversifikatsiya, qishloq xo‘jaligi sohasi sanoatlashtirish, xizmatlar sohasi, raqamli iqtisodiyot, investitsiya muhiti, inson kapitali

АНАЛИЗ СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье анализируются текущие структурные изменения, происходящие в мировой экономике, и их влияние на экономику Узбекистана. На основе статистических данных изучаются изменения в отраслевой структуре экономики страны, в частности, процессы перехода от аграрного сектора к промышленному и сервисному секторам. Также подробно рассматриваются факторы, влияющие на экономическую трансформацию, включая государственные реформы, цифровизацию, инвестиционный климат и внешнеэкономические связи. Результаты исследования показывают, что экономика Узбекистана переживает глубокие процессы структурной трансформации. В статье также разработаны практические предложения по дальнейшему развитию экономики.

Ключевые слова: структурные изменения, структурная трансформация, экономическое развитие, экономический рост, диверсификация, индустриализация аграрного сектора, сектор услуг, цифровая экономика, инвестиционный климат, человеческий капитал.

ANALYSIS OF THE STRUCTURAL TRANSFORMATION OF THE UZBEKISTAN ECONOMY

Abstract

This article analyzes the current structural changes occurring in the global economy and their impact on the economy of Uzbekistan. Using statistical data, it examines changes in the sectoral structure

of the country's economy, in particular, the transition from the agricultural sector to the industrial and service sectors. It also examines in detail the factors influencing economic transformation, including government reforms, digitalization, the investment climate, and foreign economic relations. The study's results demonstrate that Uzbekistan's economy is undergoing profound structural transformation processes. The article also develops practical proposals for further economic development.

Keywords: structural changes, structural transformation, economic development, economic growth, diversification, industrialization of the agricultural sector, service sector, digital economy, investment climate, human capital

Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti chuqur tarkibiy o'zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. World Economic Forum tomonidan e'lon qilingan “Chief Economists' Outlook, September 2025” hisobotiga ko'ra, jahonning iqtisodiy muhit tobora yuqori noaniqlik, savdo ziddiyatlarining kuchayishi hamda texnologik transformatsiyaning tezlashuvi sodir bo'lmoqda. Mazkur jarayonlar qisqa muddatli o'zgarishlardan ko'ra, uzoq muddatli tarkibiy o'zgarishlar bilan izohlanmoqda[8]. Ushbu so'rovnomada natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan bosh iqtisodchilarning 72 foizi yaqin bir yil ichida global iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayishini, bu esa jahon iqtisodiyotining markazlashmagan tarzda alohida hududlar bo'yicha rivojlanish sodir bo'lishiga olib keladi degan fikrni olg'a surishadi. Shuningdek, respondentlar katta qismi ushbu jarayonlarni vaqtinchalik emas, balki tizimli va uzoq muddat da'vom etishini takidlashmoqda. Xususan, ularning 78 foizi tabiiy resurslar va energetika, 75 foizi texnologiya va innovatsiyalar, 63 foizi esa savdo va global qiymat zanjirlarida chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotganini ta'kidlagan[9]. Qo'shimchasiga, jahon iqtisodiyotida mintaqalar orasida sezilarli tafovutlar kuchayib borayotganligini ya'ni rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o'sish nisbatan sust darajada kechayotgan bir vaqtda, rivojlanayotgan hududlar, xususan Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari yangi o'sish markazlariga aylanayotganligini ko'rish mumkin[10].

O'zbekistonda ham iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyalashuvi barqarorlik sodir bo'lmoqda. 2025-yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 7,7% ga o'sgan bo'lib, bu kuchli iqtisodiy tiklanish va umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligini namoyon etmoqda[11]. Ushbu o'sish sur'ati mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy istiqbolni ko'rsatib ayniqsa, qurilish, sanoat va qishloq xo'jaligida yuqori rivojlanish sur'atlarini aks ettiradi. Hukumat xususiy sektorni faol qo'llab-quvvatlamoda va biznes sharoitlarini yaxshilayotganligi, hozirgidagidek iqtisodiy o'sishning davom etishini saqlab qolishga yordam beradi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158 son Farmonining 45-maqsvadi ham 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish deb nomlanib, unda Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan. Bunday yondashuvlar iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 mlrd. dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish nazarda tutilgan[1].

Fikrimizcha, mazkur iqtisodiy holatlar jahon iqtisodiyotining yangi rivojlanish bosqichiga o'tayotganini, ya'ni global tizimda strukturaviy transformatsiya jarayonlari

chuqurlashayotganini va bu jarayonlar O‘zbekiston iqtisodiyotini ham global tendesiyalar qatorida bo‘lishini talab etadi. Shu boisdan ham, mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlarni tahlil qilish, ularning omillari va natijalarini ilmiy asosda o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi sanoat inqlobi davri shakllangan davrdan boshlangan bo‘lib, aynan qishloq xo‘jaligi sohasidan sanoat sohasiga o‘tish davri tarkibiy transformatsiyaning boshlanish davri hisoblanadi. Bu jarayon hozirga qadar sodir bo‘layotganligi sababli ham bu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlarning turli yondashuvlarini hozirga qadar ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Xususan, M.Sirkin tarkibiy o‘zgarishlarni iqtisodiy rivojlanishning ajralmas va markaziy jarayoni sifatida talqin qiladi. U rivojlanish faqat iqtisodiy o‘sish bilangina emas, balki umumiy iqtisodiyot tuzilmasining chuqur o‘zgarishi, ya‘ni daromadi past bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga asoslangan iqtisodiyotdan sanoat va xizmatlar kabi sohalar ustun bo‘lgan zamonaviy iqtisodiyotga o‘tish jarayoni yuz berishini ta‘kidlaydi. M.Sirkin empirik tahlillar orqali daromad oshgani sari qishloq xo‘jaligi ulushi kamayib, sanoat va xizmatlar ulushi ortishini, urbanizatsiya va kapital jamg‘arilishi kuchayishini ko‘rsatadi hamda davlat siyosati bu jarayonni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkinligini qayd etadi[2].

E.Haddad o‘z tadqiqotlarida tarkibiy o‘zgarishlarni asosan mintaqaviy rivojlanish va iqtisodiy tizim o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ekanligini tushuntiradi. Uning fikricha, iqtisodiyotdagi transformatsiya faqat ma‘lum bir tarmoqlar almashinuvi emasligini, turli hududlar va sohalar o‘rtasidagi ishlab chiqarish resurslari oqimi va zanjirlari hamda multiplikativ ta‘sirlar orqali yuz beradi. Shuningdek, infratuzilma, transport va davlat siyosati hududlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishda va samarali tarkibiy o‘zgarishni ta‘minlashda hal qiluvchi dastaklar ekanligini ta‘kidlaydi[3].

O.Buklemishev iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni Rossiya iqtisodiyotini barqaror o‘sishga olib boruvchi asosiy omil sifatida talqin etib, mazkur o‘zgarishlar iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasini oddiy xomashyoga asoslangan iqtisodiyotdan yuqori qo‘shilgan qiymatli, texnologik rivojlangan sohalarga o‘tkazishni ta‘kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, hozirgi sharoitda tarkibiy transformatsiya tabiiy ravishda emas, balki faol davlat siyosati orqali amalga oshirilishi zarurligini, negaki iqtisodiyotda mavjud nomutanosibliklar (xususan, mamlakat iqtisodiyotining resurslarga keragidan ortiq tayanishi)ni kamaytiradi hamda turli tashqi omillar va ilmiy texnik taraqqiyotni qo‘llanishida kuchli iqtisodiy siyosatni boshqarish imkonini beradi[4].

Rossiyalik yana bir iqtisodchi O.Suxarev tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy o‘sishning asosiy omili deya ta‘rif beradi. U o‘z fikrlarini tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiyotning mavjud tuzilmasini o‘sishni tezlashtirishi yoki aksincha sekinlashtirishi mumkinligi bilan asoslaydi. Muallifga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish faqat investitsiyalar hajmini oshirishni o‘zi kifoya qilmasdan ularni tarmoqlar o‘rtasida samarali taqsimlash orqali amalga oshirish zarur[5].

Mahalliy olimlarimiz ham iqtisodiyot uchun tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish qanchalik zarurligini o‘z tadqiqotlarida ko‘rib chiqishgan, Bunga misol sifatida S.Maxmudov hududlar iqtisodiyotida unumdorlikning sezilarli o‘sishi, innovatsion omillar, xususan, jamiyat iqtisodiy faoliyatining barcha sohalarida yangi texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish samaradorligining oshishi taraqqiyotning asosiga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar orqali

resurslarni samaradorligi past bo'lgan ananaviy faoliyat turlaridan samaraliroq bo'lgan zamonaviy sohalarga qayta taqsimlash va bu orqali yuqoriroq mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga, pirovardida, iqtisodiy rivojlanishning rejalashtirilgan darajasiga erishishni ta'minlash mumkin[6].

F.Raxmatullayeva iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar hududiy rivojlanishning muhim va boshqariladigan jarayoni sifatida talqin etadi, ular ya'ni tarkibiy transformatsiya qisqa muddatli natijalar bilan cheklanib qolmay, balki uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish, tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishning barqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladigan jaryon ekanligini, s hu bilan birga, ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun asosiy ko'rsatkichlar tizimi orqali muntazam monitoring olib borish zarurligi alohida qayd etadi[7].


Yuqoridagi keltirilgan fikrlar mamlakat yoki ma'lum bir mintaqqa uchun tarkibiy o'zgarishlar turli darajada tahlil qilinganligini ko'rsatadi. Biroq, fan-texnika rivojlanishi, iqtisodiy jarayonlarning o'zgarishiga, mavjud iqtisodiy tuzilmalarning taraqqiy etishiga olib keladi. Bu esa tarkibiy transformatsiya bo'yicha tahlillar olib boorish doimiy ravishda dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida o'rganish zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar va ularning hozirgi holati tahlil qilingan. Xorijiy mahalliy olimlarning tarkibiy o'zgarishlar bo'yicha fikrlari va qarashlari o'rganilib induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanilgan holda statistik va qiyosiy tahlil usullari qo'llanilgan.

Asosiy qism

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar mustaqillikning dastlabki yillaridan beri hozirga qadar amalga oshib kelmoqda. O'sha paytda yalpi ichki mahsulot tarkibida yetakchi o'rinni qishloq xo'jaligi (37,3%), sanoat (26,3% [12]) va xizmat ko'rsatish sohasi (33% [13]) egallagan. Keyingi yillarda esa aynan xizmatlar sektorining jadal rivojlanishi natijasida uning ulushi keskin oshib, birlamchi va ikkilamchi tarmoqlar ulushining nisbatan qisqarishiga olib keldi. Xizmatlar sohasining kengayishi bu yo'nalishda yangi faoliyat turlarining paydo bo'lishi bilan ham bog'liq bo'lib, jumladan ko'chmas mulk operatsiyalari, vositachilik, sug'urta, raqamli AKT, mobil xizmatlar, elektron bank xizmatlari, dasturlash, konsalting, yuridik va audit xizmatlari, lizing hamda boshqa moliyaviy xizmatlar shakllandi. Hozirda aynan shu zamonaviy xizmatlar umumiy xizmatlar hajmining 21 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining 3 ta davrida sodir bo'lgan tarkibiy o'zgarishlarni yaqqol holatda 1-rasmda ko'rish mumkin.



1-rasm. O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibiy o'zgarishlarining tuzilishi

O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Yuqorida keltirilgan rasmda O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarining YAIMdagi ulushi 2010, 2018 va 2025-yillar kesimida tahlil qilingan bo'lib, u yerda to'rtta soha ya'ni qishloq xo'jaligi yashil, sanoat sohasi qizil, qurilish sohasi sariq hamda xizmatlar sohasi ko'k ranglarda ifodalangan. Bu ma'lumotlar mamlakatda sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Xususan, tarmoqlar kesimida qaralganda, iqtisodiyotning an'anaviy asosini tashkil etgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi izchil kamayib borgan (27,0% → 25,3% → 17,3%). Bu holat agrar sektor ulushining qisqarib, sanoat va xizmatlar sohalari tobora rivojlanib borayotganini anglatadi. Boshqacha aytganda, ilgari agrar yo'nalishga tayangan iqtisodiyot asta-sekin diversifikatsiyalashgan modelga o'tmoqda.

Sanoat sohasi esa tahlil qilinayotgan davrda sezilarli o‘shishni namoyon etdi. Bugungi kunda u 21,7 foiz ulush bilan qishloq xo‘jaligini ortda qoldirib, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Bu sanoatning mamlakat iqtisodiyotidagi tayanch rolini mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, tashish va saqlash xizmatlari ulushi yillar davomida nisbatan kamaygan (9% dan 7,3% gacha). Garchi bu sohaning mutlaq hajmi sezilarli oshgan bo‘lsa-da (2010-yildagi 7050,3 mlrd so‘mdan 2025-yilda 97301,4 mlrd so‘mgacha[14]), boshqa tez rivojlanayotgan tarmoqlar fonida uning ulushi qisqargan.

Ijtimoiy xizmatlar sohasida esa ijobiy o‘shish kuzatiladi. Jumladan, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ulushi 2,4 foizdan 4,4 foizgacha oshgan. Ta‘lim sohasida ham 2018-yildagi qisqarishdan so‘ng tiklanish va o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu jarayonlar inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosatning kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Sanoat tarkibidagi ayrim muhim yo‘nalishlar, xususan tog‘-kon sanoati hamda elektr energiyasi, gaz va bug‘ bilan ta‘minlash tarmoqlarida ham o‘shish qayd etilgan (mos ravishda 4,1% → 5,5% va 2,0% → 2,8%). Bu esa resurs va energetika sektorlarining strategik ahamiyati ortib borayotganini bildiradi. Xizmatlar sohasida esa zamonaviy yo‘nalishlar, ayniqsa axborot va aloqa (1,7% → 2,1%) hamda moliyaviy xizmatlar (2,0% → 2,4%) ulushining oshib borayotgani e‘tiborga loyiq. Bu bevosita raqamlashtirish jarayonlari va raqamli iqtisodiyot rivoji bilan bog‘liq.

Mazkur tahlil yaqin yillarda iqtisodiyotda yuz berayotgan asosiy tendensiyalarni aniq ko‘rsatadi: agrar sektordan sanoat va xizmatlarga barqaror o‘tish, sanoatning, ayniqsa qayta ishlash yo‘nalishining kuchayishi, energetika va resurs tarmoqlarining strategik rolining oshishi, shuningdek ijtimoiy va zamonaviy xizmatlar ulushining kengayishi. Bu jarayonlar O‘zbekiston iqtisodiyotida chuqur tarkibiy transformatsiya kechayotganini, yangi o‘shish drayverlari shakllanayotganini va iqtisodiyot tobora diversifikatsiyalanib borayotganini anglatadi.

Yuqorida tahlilda keltirilgan kabi jarayonlar sodir bo‘lishi O‘zbekiston iqtisodiyotining bir necha jihatlari bilan ifodalash o‘rinli bo‘ladi ya‘ni:

- davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar – so‘ngi yillarda iqtisodiyot sohasi ochiqlik siyosati asosida rivojlantirilmoqda va qulay investitsiya muhitini shakllantirish uchun normativ asoslar ishlab chiqilgan holda xalqaro kompaniyalarning mamlakatimiz kirib kelishiga keng imkoniyatlar taqdim etilmoqda;

- sanoatlashtirish va ishlab chiqarishning diversifikatsiya qilinishi – mamlakatning asosiy sohasi hisoblangan qishloq xo‘jaligi sohasidan biroz murakkab hisoblangan ishlab chiqarish tarmoqlariga o‘tishi, tabiiy xomashyo mahsulotlarini qayta ishlagan holda tayyor mahsulot darajasiga yetkazish orqali yuqori qo‘shilgan qiymat yaratilmoqda;

- raqamlashtirish va innovatsiyalardan keng foydalanish – mamlakat iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli transformatsiyalachuvni amalga oshirish orqali xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, yangi sohalarning shakllanishini ta‘minlab kelmoqda;

- infratuzilmani rivojlantirish va inson kapitaliga e‘tibor – mamlakatning barcha hududlari bo‘ylab aholi yashash hududlari va yirik sanoat zonalarini bo‘ylab infratuzilmalarni rivojlantirish orqali transport-logistika tizimlarini yaxshilash hamda ta‘lim va sog‘liqni saqlash

sohalarida mavjud muammolarni yaxshilash orqali yuqori salohiyatga ega kadrlar tizimini shakllantirilmoqda;

– tashqi iqtisodiy aloqalarning kuchayishi – eksport uchun yangi koridorlarning shakllanishi va bozorlarga kirib borish, xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan imkoniyatlar hamda qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Ushbu sanalgan jihatlar O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning barqaror kechayotganligini ko‘rsatib, bu jarayon rivojlangan mamlakatlardagi kabi xizmatlar sohasining keng rivojlanishiga va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada oshishiga imkoniyat yaratib berishini asoslab beradi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki tarkibiy transformatsiya bu har qanday mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, asosan shakllanish hamda o‘tish davrlarida yaqqol namyon bo‘ladi. Iqtisodiy tarmoqlarda amalga oshiriladigan o‘zgarishlar mazkur jarayonlarning tezlashishiga yoki ma‘lum bir sohalarida qisqarishlar olib kelishi mumkin. Biroq bir sohaning qisqarishi boshqa bir sohaning kuchayishiga olib kelishi ham mumkin bo‘ladi. Shunday ekan O‘zbekiston sharoitida tarkibiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi:

Birinchiidan, iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Xususan, qayta ishlash sanoati, innovatsion ishlab chiqarish va eksportga yo‘naltirilgan korxonalarini rivojlantirish orqali sanoatning iqtisodiyotdagi ulushini yanada oshiradi.

Ikkinchiidan, xizmatlar sektorini rivojlantirishda zamonaviy va bilimga asoslangan xizmatlarga ustuvorlik berish lozim. Jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, konsalting, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarini qo‘llab-quvvatlash orqali xizmatlar sektorining sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini ta‘minlaydi.

Uchinchiidan, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish maqsadida infratuzilmani rivojlantirish, sanoat zonalarini va klasterlarni tashkil etish, investitsiyalarni hududlar kesimida muvozanatli taqsimlashga yordam beradi.

To‘rtinchiidan, iqtisodiy transformatsiyani jadallashtirish uchun inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish muhim hisoblanadi. Ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish hamda mehnat bozorini zamonaviy talablar asosida shakllantirish yuqori samaradorlikka erishiladi.

Beshinchiidan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsiyalarni keng joriy etish orqali barcha tarmoqlarda samaradorlikni oshirish mumkin. Bu borada davlat tomonidan raqamlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, startaplar va texnologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, yuqoridagi takliflarni amalga oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy transformatsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirib, iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, raqobatbardoshligi va barqaror o‘sishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158 son Farmoni 12.09.2023-yil Manba: <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. Syrquin M. Patterns of structural change //Handbook of development economics. – 1988. – T. 1. – C. 203-273.

3. Haddad E. A. Regional inequality and structural changes: lessons from the Brazilian experience. – Routledge, 2018.
4. Буклемишев О. В. «Структурная трансформация» Российской экономики и экономическая политика //Проблемы прогнозирования. – 2023. – №. 4. – С. 42-53.
5. Сухарев О. С. Структурная политика: к новой инвестиционной модели экономического роста //Финансы: теория и практика. – 2019. – Т. 23. – №. 2. – С. 84-104.
6. Maxmudov S.SH. O‘zbekistonda ish bilan bandlikning tuzilmaviy transformatsiyasi. Monografiya. – Qarshi: Nasaf, 2020. – 144 b.
7. Mubinovna R.F. Mintaqarda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda strategik rejalashtirish usulini qo‘llash mexanizmini ishlab chiqish //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2025. – Т. 5. – №. 01. – С. 175-183.
8. <https://www.weforum.org/publications/chief-economists-outlook-september-2025/>
9. <https://www.engineeringnews.co.za/article/chief-economists-warn-of-weak-growth-as-economic-environment-shifts-2025-09-25>
10. <https://www.weforum.org/press/2025/09/chief-economists-warn-of-weak-growth-as-economic-environment-shifts>
11. <https://invest.gov.uz/en/reason/economy>
12. <https://www.norma.uz/gazeta ntv/21 god nezavisimosti - 21 god preobrazovaniy>
13. <https://www.un.int/uzbekistan/news/independence-%E2%80%93-basis-economic-development-achievements>
14. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_548.pdf
15. Akramovich, R. Z. B. (2025). QASHQADARYO VILOYATIDA SAFARI TURIZMINING RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARINI IQTISODIY-STATISTIK BAHOLASH. Economics and Innovative Technologies, 13(6), 146-150.
16. Akramovich, R. Z. B. (2025). Analysis of Safari Tourism Development Opportunities in Kashkadarya Region: Analisis Peluang Pengembangan Pariwisata Safari di Wilayah Kashkadarya. Academia Open, 10(1), 10-21070.